



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “24” aprel

BUYRUQ № 48

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, statistika ma‘lumotlarini tarqatish va taqdim etish ishlarini yanada takomillashtirish hamda rasmiy statistika to‘plamlarini chop etishda rasmiylashtirishning yagona stilistikasiga rioya qilish hamda foydalanuvchilarni rasmiy statistika ma‘lumotlari bilan ta‘minlash sifatini yanada yaxshilash maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida rasmiy statistika to‘plamlarini rasmiylashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 29- avgustdagi 30-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov